

Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik hususiyatlari

N.B.Matkarimova
Nizomiy nomidagi TDPU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Prezident maktablarida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik hamda psixologik hususiyatlari bayon etilgan. Shu bilan birga Prezident maktablaridagi tizimli ta'lim shakli, usul, vositalari haqida ma'lumotlar mujassamlashgan.

Kalit so'zlar: STEAM - ta'lim, shaxga individual yondashuv, professional ta'lim, ta'lim, ijodkorlik, qobiliyat, bilim, ko'nikma, faoliyat, differensial, tashabbus, ta'lim muassasasi

Pedagogical and psychological features of the formation of creative abilities of students of presidential schools

N.B.Matkarimova
TSPU named after Nizami

Abstract: This article discusses the pedagogical and psychological features of the formation of creative abilities of students of Presidential schools. At the same time, there is information about the form, methods and means of systematic education in the Presidential schools.

Keywords: STEAM-education, individual creativity, professional education, creativity, work, skill, activity, differential, initiative, educational knowledge.

O'tgan davr mobaynida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste'dodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or xorijiy tajribalar talablari asosida darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, shu jumladan, elektron shaklda nashr etish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatlarini professional va yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan, talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'lmoqda. Iqtidorli yoshlarni

aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash, yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va nashr etishdagi muammolarni bartaraf qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni ijrosini hamda 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, Prezident maktablari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 526-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Respublikamiz hududida, qator viloyatlarimizda zamonaviy shart-sharoitlari, o'zgacha o'quv uslubiga ega Prezident maktablari qad ko'tarayotgani yanada quvonarli holdir. Kelajagimiz "oltin fondi"ni tarbiyalash, mas'uliyati, bilimli, lider yoshlardan mustahkam bilim, yuksak salohiyatli kadr qilib shakllantirishga alohida e'tibor bilan yondashish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Prezident maktabi mazkur yo'nalishdagi yetuk, malakali kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgan ta'lim muassasasi sifatida salohiyatli, ijodkor yoshlarni tarbiyalamoqda. Mazkur maktab ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi hisoblanib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun qobiliyatli o'quvchini aniqlash va o'qitishni ta'minlashga qaratilganligi bilan boshqa ta'lim muassasalaridan farq qiladi.

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan ilgari surilgan qaror ijrosi yuzasidan 14 ta Prezident maktabi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil qilinishi belgilangan bo'lib, 2019-yilda Prezident maktab-internatlarini Toshkent, Xiva, Nukus va Namanganda ochildi. Prezident maktablarining dastlab cheklangan miqdorda tashkil etilishi ushbu muassasalarni boshqarish uchun mutlaqo yangi modelni sinab ko'rish zarurati bilan bog'liq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirda Prezident maktablari O'zbekistonning barcha viloyatlarida qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil qilish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda. Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan etuk va intellektual jihatdan barkamol

avlodni shakllantirish, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etildi.

Ma'lumki, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga tayanish zamonaviy ta'lim tizimida eng maqbul yo'l hisoblanadi. Prezident maktablari o'quv jarayoni ana shunday tarzda tashkil etiladi, o'quvchining ijodiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi va bu jarayonda o'qituvchi ham bevosita ishtirok etadi.

O'quvchi ijodiy faoliyatini tashkil etishda shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchini shaxsiy ahamiyatga molik shunday darajaga ko'taradiki, bu hol, o'z navbatida, ijodiy faoliyatning har qanday turida faollik va ijodkorlikning kuchayishiga imkon yaratadi. Natijada ijodiy faoliyat- tashkiliy jihatdan murakkab yaxlitlik, ya'ni "qismlarining o'zaro ta'siri ularning o'zidan ko'ra muhimroq" bo'lgan yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda ularning bilim va malakalari monitoringini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talab nazorat uchun berilgan vazifalar mazmuniga o'quv maqsadlariga, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mutanosib bo'lishi lozim.

"Qobiliyatli o'quvchi" iborasi ma'lum bir eksklyuzivlik bilan belgilanadi. Buni aytib, biz maxsus o'quvchi guruhining mavjudligiga imkon beramiz. Bu o'quvchi tengdoshlaridan sifat jihatidan farq qiladi: ular rivojlanishdan oldinda bo'ladi. Garchi iste'dodni tushunishning bunday yondashuvi tanqid qilinayotgan bo'lsa-da, bu o'quvchi guruhining mavjudligi statistik jihatdan aniqlanadi va shubha tug'dirmaydi.

"Qobiliyatli" va "o'quvchi" so'zlari boshqa kombinatsiyalarda – "o'quvchi qobiliyatli" so'zlari juda boshqacha ta'riflanadi. Fikrlash, ijodkorlik, o'rganish qobiliyati endi biz uchun alohida emas, balki salohiyat sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaymiz. Har bir inson uchun mavjud bo'lgan sovg'a, lekin turli darajalarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, "Qobiliyatli o'quvchi" atamasi bilan bir qatorda, ularning eksklyuzivligini ta'kidlab, boshqa, yaqin, ammo ayni paytda mazmun jihatidan mutlaqo boshqacha atama – "o'quvchi qobiliyati" paydo bo'ladi.

Shunga ko'ra, pedagogik amaliyotda ikkita teng vazifalar paydo bo'ladi:

- birinchisi-qobiliyatli o'quvchini tarbiyalash tizimini yaratishdir;
- ikkinchi vazifa – har bir bolaning salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Qobiliyatni faqat aqlning hususiyatlari sifatida tushunish butunlay to'g'ri emas. Qobiliyatli inson psixikaning sifatli o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, bu esa boshqa

odamlarga nisbatan juda yuqori (g'ayritabiiy, noyob) natijalarga erishish imkoniyatlarini belgilaydi.

Qobiliyatli o'quvchi turli xil vazifalarga qiziqish ortib borayotganligi bilan ajralib turadi, bu ularning konvergent turdagi vazifalarini aniq afzal ko'radi. Ushbu vazifalar tomonidan yaratilgan yuqori darajadagi noaniqlik holatlari bostirilmaydi, aksincha, bolaning faoliyatini rag'batlantiradi. Ushbu turdagi muammolarni hal qilish turli yondashuvlarni izlashni talab qiladi, ko'pincha sezgi, yorug'lik va samarali fikrlashning boshqa o'ziga xos hususiyatlari talab qilinadi.

Fikrlashning o'ziga xosligi – keng tarqalgan, umumiy qabul qilingan, ahamiyatsiz bo'lgan yangi, kutilmagan g'oyalarni ilgari surish qobiliyati. Bolaning fikrlash va xatti-harakatlarida, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda, uning barcha faoliyat turlarida (mustaqil chizmalarning tabiati va mavzularida, hikoyalar, dizayn va boshqa o'quvchi faoliyati mahsulotlarida ifodalangan) namoyon bo'ladi.

Fikrlashning moslashuvchanligi – yangi muqobil yechimlarni topish, assotsiativ aloqalarni o'rnatish va (fikrlash va xulq-atvorda) bir sinfnig hodisalaridan boshqasiga o'tish, ko'pincha kontentdan uzoqdir. Fikrlashning yuqori darajadagi moslashuvchanligi kamdan-kam uchraydi, shuning uchun uning mavjudligi qobiliyatli o'quvchiga xos bo'lgan eksklyuzivlikni ko'rsatadi.

Shuningdek, barcha qobiliyatli o'quvchi psixo-ijtimoiy rivojlanishning o'xshash hususiyatlariga ega:

O'z-o'zini anglash. Qobiliyatli o'quvchi o'zlarining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularning ichki salohiyatini namoyon etish istagini bildirdilar. O'z-o'zini anglash istagi ijodkorlikning asosiy motivatsiyasi hisoblanadi.

O'z faoliyatining natijalari (mukammallik) uchun talab– o'z faoliyatining har qanday mahsulotlarini eng yuqori talablarga javob berishga intilish. Qobiliyatli o'quvchi o'z ishlarini bajarishda eng yuqori darajaga erishmasdan qoniqishmaydi. Mükemmellik, eng yuqori shaxsiy standartlarga mos kelguniga qadar ishni bajarish va qayta ishlash uchun qattiq harakat qilishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy qobiliyat – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oya farazini ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlardan foydalanish, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda yechimini topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va boshqalar) sifatlari majmuidir.

Xususan, bir qator tadqiqotlarda maxsus uyushtirilgan mashg'ulotlar yordamida shaxs ijodiy qobiliyati taraqqiyotida ijobiy dinamikaga erishish mumkinligi isbotlanmoqda. Jumladan, o'quvchilar bilan art-terapiya va improvizatsiya usullari vositasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilganda kreativlikning qator ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Ijodiy faoliyat – bu subyekt faoliyatining o‘z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko‘chirish, muammoli, ma‘lum obyektini yangi funksiyasini ko‘ra bilish) jarayonidir.

Ijodiy faoliyat o‘zida quyidagi muhim jihatlarni aks ettiradi:

- tizim ichida va tizim o‘rtasidagi bilim va ko‘nikmalarni yangi tizimga qisqa va uzoq muddat ichida o‘tkazishni mustaqil amalga oshirish;
- kutilmagan vaziyatda (holatda) yangi muammoni ko‘ra bilish; obyekt tuzilishini ko‘ra bilish;
- muammoni hal etishda muqobillikni hisobga olish;
- yangi muammolarning yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma‘lum bo‘lgan usullari bilan uyg‘unlashtirish;
- muammolarni hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirish.

O‘quvchilar bilan ishlashda ularning individual xususiyatlari, qobiliyati hamda layoqatidan kelib chiqqan faoliyat shaklini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Prezident maktablari tahsil olish, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish - mutlaqo bepul bo‘lib, bunda ta‘lim oluvchilariga umumiy o‘rta ta‘lim beriladi. Bunda Prezident maktablarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ta‘lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali qobiliyatli o‘quvchini aniqlash va o‘qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, qobiliyatli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘naviy boy va intellektual rivojlangan, keng dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta‘minlashdan iboratdir.

Prezident maktabi o‘quvchilari uchun maxsus dastur asosida tizimli muhit, innovatsion shart-sharoitlari yaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar bepul oziq-ovqat, maktab formasi, yashash joyi bilan ta‘minlanadi. Ovqatlanish-besh mahallik ratsionni tashkil etadi.

Prezident maktablariga yuqori malakali o‘qituvchilar faoliyat olib borib, ular ham ma‘lum me‘zonlar asosida tanlab olinadi. Bunda o‘qituvchilar STEAM yo‘nalishidagi fanlar Cambridge University tashkiloti bilan birgalikda tuzilgan dasturga kirgan fanlarni, xorijiy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv rejalari, dasturlari bo‘yicha o‘qitilishi sababli quyidagi talablarga javob berishiga alohida e‘tibor beriladi.

Prezident maktablaridagi ta‘lim jarayoni maktab-internat shaklida tashkil etilganligini e‘tiborga olib, o‘quvchilar darsdan tashqari o‘z ustilarida ishlab, qo‘shimcha ta‘lim va tarbiya olishi, bunda: tabiiy va aniq fanlarni chuqur o‘rganish, turli xil amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etish, xorijiy tillarni o‘rganish, muhandislik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish kabi kelajak ko‘nikmalarni o‘rganishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktablari o‘quvchilari haqida taxliliy ma’lumot. Jurnal. Toshkent-2021, 3-bet
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. O‘RQ-637-son, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 6-son. 1-ilova IV-4.
4. Burxanov A., Shodmonov Q, “Psixologiya” 2006-yil, 87-b.
5. Бодалев, А. А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения / А. А. Бодалев. — М. : Флинта: Наука, 1998.-165 с.
6. Бегалиева С.Б., Акмеологический подход – новая парадигма в совершенствовании подготовки будущих специалистов // Успехи современного естествознания. – 2013. – № 7. – С. 123-126
7. Веретенникова Л.К. “Подготовка будущих учителей к формированию творческого потенциала школьников” док.пед.наук дисс. –М. 340 ст.
8. Садовникова И.Е, Развитие творческого потенциала школьников в образовательном процессе дис.канд. пед.наук – Екатеринбург, 2003.-168 ст.
9. Данилова Г.С., “Акмеолічна школа» нова якість освіти / Г.С. Данилова // Освіта і управління. – Т. 12. – 2002. – № 2. – С. 96 – 108
10. Дроздикова Л.Н., “Диагностика творческого развития личности” Методическое пособие, Новосибирск-2003г 8-15 ст
11. Добрякова Л.Н. Акмеологическая деятельность в управленческих структурах образования. Автореферат дис. канд. пед. наук. – СПб, 1999. – 23 ст